
Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish qanday tartibda amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yhatga olish to'g'risida"gi Qonuni 24-moddasiga asosan aholini ro'yhatga olishni o'tkazish sanasida chaqiruv asosida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bo'lgan, shuningdek kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga jalb etilgan harbiy xizmatchilar bo'lgan va ularning yopiq hududlarda yashayotgan oila a'zosi bo'lgan respondentlar haqidagi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish harbiy qism komandiri yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Aholini ro'yhatga olishni o'tkazish sanasida:

bolalar internatlarida, tarbiya muassasalarida, «Bolalar shaharchalari»da;

ijtimoiy muassasalarda;

diniy muassasalarda;

shifoxonalarda va boshqa sog'liqni saqlash tashkilotlarida;

zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlarida;

qamoqda saqlash joylarida, tergov hibsxonasida, axloq tuzatish muassasalarida va maxsus muassasalarda yashayotgan (bo'lgan) respondentlar to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish ushbu qismda nazarda tutilgan muassasalar hamda tashkilotlar ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari xodimlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ularning o'zi bilan birga bo'lgan oila a'zolari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi kvotalangan lavozimlarga yuborilgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ro'yhatga olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar doimiy vakolatxonalarining, xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va chet davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari bo'lgan chet el fuqarolari hamda ularning oila a'zolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq diplomatik imtiyozlarga va immunitetga ega bo'lgan boshqa shaxslar ro'yhatga olinmaydi.

